

DUNYO TILSHUNOSLIGIDA TIL VA MADANIYATGA OID QARASHLAR**Shonazarova Hulkaroy Bunyod qizi***O'zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati Yangiariq tumanidagi ixtisoslashtirilgan**maktab o'quvchisi**Xorazm, O'zbekiston*

Annotatsiya: *Maqolada antroposentrik paradigma, unda til insonning asosiy aniqlovchi xarakteristikasi ekanligi borasidagi fikrlar tahlilga tortiladi, bu yerda til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir, o'zaro aloqa, o'zaro harakat haqida to'xtalib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *lingvokulturologiya, til va madaniyat, tabu, evfemizmlar, turg'un birliklar, semiotik tizim.*

XIX asrning eng zo'r olimlari (V.Gumboldt, A.A.Potebnya) tilni ma'naviy kuch deb tushunishgan. Til bizni o'rab turgan muhit, uning ishtirokisiz biz yashay olmaymiz. V.Gumboldtning yozishicha, til – bu tashqi hodisalar dunyosi va insonning ichki dunyosi o'rtasidagi dunyo. Ma'lum bo'ldiki, til bizning turmush tarzimiz muhiti bo'lib, u bizdan tashqari holda obyektiv shaklda mavjud bo'la olmaydi. U fikrning har bir harakati bilan, har bir ijtimoiy – madaniy rol bilan o'zgaradi.

E.Sepir fikricha, til hodisasi etnologik bilimlar yordamida o'rganilishi lozim: "...biz tilni madaniyat belgilarining ko'rinishi deb qarashimiz mumkin, til madaniy hodisalarni o'rganishda muhim vosita". Sepir – Uorf gipotezasida quyidagi asosiy fikrlar ajratiladi:

- 1) til unda so'zlashadigan xalqning fikrlash tipini belgilaydi;
- 2) real dunyoni anglash usuli, o'rganuvchi subyekt qaysi tillarda fikrlashiga bog'liq.

Til – madaniyat haqiqati (fakti), chunki:

- 1) u madaniyatning bir qismi bo'lib, bizga ajdodlarimizdan o'tib keladi;
- 2) til – madaniyatni o'zlashtirishimizda asosiy qurol;
- 3) til – barcha madaniy hodisalarning muhim tartibi, biz madaniyatning asosini tushunmoqchi bo'lsak – fanni, dinni, adabiyotni – bu hodisalarni kodlar tarzida ko'rib chiqishimiz lozim. Bizningcha, antroposentrik paradigmada birinchi o'rinda inson ko'tariladi, til insonning asosiy aniqlovchi xarakteristikasi bo'lib, bu yerda o'zaro ta'sir, o'zaro aloqa, o'zaro harakat haqida to'xtalib o'tmoq kerak.

"Til va madaniyat"ni bir butun, yaxlit ajralmas birlik sifatida qarash lozim, faqat shundagina bu hodisalarning mohiyatini tushunish mumkin. Shunday qilib "til bir vaqtning o'zida madaniyatning ham mahsuli, ham tashkiliy qismi, ham madaniyatning mavjudligi sharoitidir".

Til va madaniyat qanday bog'langan? Balki, ma'lum bir oraliqdagi bog'lanishlar orqalidir – ideal, tilda muhimlik deb qaraluvchi.

Z.K.Sabitova bu ikki fenomen (til va madaniyat) umumiyliги ularning tabiati (insonga tegishliligi), funksiyalari hamda yuzaga kelish sharoiti bilan bogʻliq deb hisoblaydi. Til va madaniyat genetik sohada yaxlit (bir joyda paydo boʻlgan), material sohada semiotik harakterga ega.

Til va madaniyat oʻrtasidagi harakatlarni ehtiyotkorlik bilan oʻrganish lozim, ularni har xil semiotik tizimligini yodda tutgan holda. Ular semiotik tizim boʻlgani bilan koʻp umumiy tomonlarga ega. V.N.Teliya:

- 1) madaniyat til kabi ong holati boʻlib, inson dunyoqarashini aks ettiradi;
- 2) madaniyat va til oʻzaro dialogda mavjud boʻladi;
- 3) madaniyat yoki tilning subyekti – bu doim individ yoki jamiyat, shaxs yoki jamiyat;
- 4) normativlik – til va madaniyat uchun umumiy tomon (sifat);
- 5) tarixiylik – madaniyat va tilning xususiyatlaridan biri;
- 6) til hamda madaniyat uchun antinomiya xos “dinamika-statika”.

Til va madaniyat oʻrtasidagi oʻzaro munosabat koʻp hollarda metaforalar bilan harakterlanadi, unda madaniyatni harakterlashda asosiy rol tilga qaratiladi; til – madaniyat asosi, qurilish materiali – V.N.Tonfov, D.B.Gudkov; madaniyat fenomeni, madaniyat koʻrinishi – V.A.Maslova; ruh (maʼnaviyat) haqiqati, madaniyat ombori – V.Gumbolt; rivojlanish omili, madaniyat yashashi sharoiti – K.Levi Stroes; madaniyatda boshqaruvchi (rahbar) – E.Sepir va hakazo;

Lingvokulturologiyaning maqsadi – til birligi orqasida turgan madaniy fonni koʻrish; boshqacha aytganda til prizmasi orqali madaniy makonni taʼriflash.

V.V.Krasnix lingvokulturologiya maqsadini quyidagicha aniqlashtiradi: “Lingvokulturologiya til yordamida qadimiy tasavvurlarni oʻrganish, fazo, vaqt, faoliyatdagi tasavvurlarni aniqlash”.

V.V.Krasnixning fikri bizning tadqiqotimiz uchun muhim, chunki u oʻzining asosiy eʼtiborini milliy madaniyatga qaratgan, bu insonning nutqiy faoliyatini va madaniyatini kengroq oʻrganish imkonini beradi.

Tilshunoslikni lingvokulturologik tadqiqotlarga qaratilganini olimlar tomonidan madaniyatni namoyon qilishda tilning oʻrnini, soʻzlar maʼnosi rivojlanishini yaxshiroq tushunish bilan asoslash mumkin.

Tabu va evfemizmlar – til hodisasi boʻlib, maʼlum bir etnosning dunyoqarashi, madaniyati, dini, hayot tarzi, psixologiyasi, mifologiyasini aks ettiruvchi xususiyatlaridir. Tabu va efemizmlar tillar va madaniyat bilan bevosita bogʻliq, bu ularni lingvomadaniyat pozitsiyasidan koʻrib chiqish uchun asos boʻladi. Tabu va efemizm kabi til hodisalari asosida mif (afsona) yotadi. Turli xil xalqlarda soʻzning harakterli xususiyatlari aks etgan:

- 1) Qozoq madaniyatida: “Soʻz toshni yoradi, agar toshni yormasa boshni yoradi”, “Yaxshi soʻz – ishning yarmiga teng”;
- 2) Rus madaniyatida: “Yaxshi soʻzdan jon (ruh) tinchlik (sokinlik) topadi”.

3) Xitoy madaniyatida: “So‘z chumchuq emas, chiqib ketsa ushlolmaysan”, “Aytilganni qaytarib bo‘lmaydi”, “So‘z bergandan so‘ng uni ustidan chiq”, “So‘z ham harakat ham namuna bo‘ladi”;

Bizningcha, tabu terminiga kengroq izoh “Tilshunoslik bo‘yicha lug‘at”da berilgan. Tabu – u yoki ba tabudan foydalanishga ta‘qiq, ta‘qiqning o‘zi. tabuning kelib chiqishi asosi mifologik qarashlar, irimlardir. Tabu ostida kasalliklar nomi, xudolar nomlari, hayvonlar nomi, qarindoshlar ismlari tushunilgan. Zamonaviy tilda tabuga harbiy yoki dinnomatik sirlar bilan bog‘liq ta‘qiqlar, qo‘pol va nojo‘ya gaplarni, og‘ir kasalliklar nomini almashtirish tushuniladi.

V.M.Moskvin fikri bo‘yicha evfemizmlar 6 ta funksiyada qo‘llaniladi:

- 1) qo‘rquvga soluvchi obyektlar nomini almashtirish uchun;
- 2) yoqimsiz, nafrat uyg‘otuvchi nomlarni almashtirish uchun;
- 3) odobsiz hisoblanuvchi narsani aytish uchun;
- 4) atrofdagilarni qo‘rquvga solishdan cho‘chib, nomlarni sof holda aytish o‘rniga ularni almashtirish;
- 5) ko‘rsatiluvchining haqiqiy shaxsiyatini niqoblash uchun;
- 6) talab kam bo‘lgan idora va kasblarni ko‘rsatish uchun

Lingvokulturologik kommunikativ tabu va evfemizmlarni mazkur tadqiqotda 4 guruhga tasniflaymiz:

I. Mazmuniy (tematik) tabu va evfemizmlar;

II. Til tabusi va evfemizmlari;

III. Munosabatli tabu va evfemizmlar;

IV. Hulqiy tabu va evfemizmlar;

Xullas, lingvokulturologik tadqiqotlar til ilmida g‘oyat muhim tadqiqotlar hisoblanib, til birliklarini ushbu nuqtayi nazardan o‘rganish, ayniqsa, tabu va evfemizmlar yoki o‘xshatishlar, metaforalar, iboralar kabi turg‘un birliklarning lingvomadaniy tadqiqi har bir xalqning o‘ziga xos mentaliteti, milliy tafakkuri, psixologiyasi va faqat o‘ziga xos bo‘lgan ijtimoiy baholash standartlari borligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan mazkur izlanishlarimiz tilshunosligimizda o‘z ahamiyati va o‘rniga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Арутюнова Н.Д., Степанов Г.В. Русский язык. – М.: Наука, 1979. –С.83.
2. Babanazarova S.A. O‘xshatishlarda olamning lisoniy konseptualashtirilishi. Filol.fan.nomz. ...diss. – Urganch, 2023.
3. Воробьев В.В. О статусе лингвокультурологии. // Русский язык, литература и культура на рубеже веков: Тезисы докладов и сообщений IX конгресса МАПРЯЛ. – Братислава, 1999. С.126.

4. Гумбольдт В. фон. О различии строения человеческих языков и его влияния на духовное развитие человечества // Избранные труды по языкознанию. – М.: Знание, 1986. – С.69-94.

5. Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология. – М.: Курс лекций. ИТДГК, Гнозис, 2002. С.12.

6. Маслова В. А. Введение в лингвокультурологию. - М., 1997.

7. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. -- М., 1993.